

**XORAZMSHOHLAR DAVRIDA MARKAZIY VA MAHALLIY
BOSHQARUVNING O‘RNI VA RO‘LI**

Djumaniyazov Lutfulla Abdullaevich

Osiyo xalqaro universiteti Xorazm filiali, tarix mutaxassisligi 1-kurs magistranti

E-mail: lutfulla917@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezis Xorazmshohlar davrida markaziy va mahalliy boshqaruv tizimini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, tadqiqot asosan o‘rta asr musulmon tarixchilari asarlari hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida olib boriladi. Markaziy hokimiyat va mahalliy boshqaruvning davlat boshqaruvidagi o‘rni va ro‘li ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Xorazm, Gurganch, Anushtegeniylar, Sultonshoh, Xuroson, Jaloliddin Manguberdi Takash, Jayhun, mudofaa, qoraxitoy, savdo-sotiq, qoraxoniylar, samoniylar, g‘aznaviylar, g‘uriylar, bosqin, mo‘g‘ullar, qal’a, Juzjoniylar, saljuqiylar, saroy, shahar, harbiy, qo‘shin, ma‘daniy hayot, Alouddin Muhammad, qo‘rg‘on, hunarmandchilik, Movarounnahr, amaliy san‘at, boshqaruv, qurilish, me‘morchilik, mahalliy, ma‘muriy

Аннотация: Данный тезис посвящён изучению системы центрального и местного управления в период государства Хорезмшахов. Исследование основано преимущественно на трудах средневековых мусульманских историков, а также на современных научных источниках. В работе раскрывается роль и значение центральной власти и местного управления в системе государственного управления.

Ключевые слова: Хорезм, Гургандж, Ануштегиниды, Султаншах, Хорасан, Джалал ад-Дин Манкуберды, Текеш, Джейхун (Амударья), оборона, Каракитаи, торговля, Караханиды, Саманиды, Газневиды, Гуриды, завоевание, монголы, крепость, Джузджани, Сельджуки, двор, город, военное дело, войско, культурная жизнь, Ала ад-Дин Мухаммад, цитадель, ремесло, Мавераннахр, прикладное искусство, управление, строительство, архитектура, местное, административное.

Abstract: This thesis is devoted to the study of the system of central and local governance during the period of the Khwarazmshahs. The research is mainly based on the works of medieval Muslim historians as well as modern scholarly literature. The role and significance of central authority and local administration in the state governance system are revealed.

Keywords: Khwarazm, Gurganj, Anushteginids, Sultonshah, Khorasan, Jalal ad-Din Manguberdi, Tekish, Jayhun (Amu Darya), defense, Qara-Khitai, trade, Qarakhanids, Samanids, Ghaznavids, Ghurids, invasion, Mongols, fortress, Juzjani, Seljuks, court, city, military, army, cultural life, Ala ad-Din Muhammad, citadel, handicrafts, Mawarannahr, applied arts, governance, construction, architecture, local, administrative.

KIRISH

Xorazm sivilizatsiyasi, bu vohada shakllangan qadimiy Xorazm davlati nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon tarixida alohida o‘rin egallaydi. Asrlar davomida bu hududda shakllanib, rivojlangan davlatlar o‘zbek davlatchiligining muhim bosqichlarini tashkil qiladi. Milloddan avvalgi VII–V asrlarda O‘rta Osiyo hududida eng yirik davlatlar — qadimgi Xorazm va qadimgi Baqtriya mavjud edi. Xorazm davlati, ayniqsa, o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda bo‘lib o‘tgan barcha siyosiy jarayonlarda faol qatnashgan. Xorazm Markaziy Osiyodagi Movarounnahr, Xuroson qatorida turadigan tarixiy-geografik hudud hisoblanadi. O‘rta asrlar Markaziy Osiyo geografiyasi xususida ma’lumot beruvchi “Kitob surat al-ard” asarida Ibn Havqal: “Xorazm bir o‘lkaning nomidir. Bu o‘lka Xurosondan ham, Movarounnahrda ham alohidadir. Uning har tomonini cho‘llar o‘rab turadi. Jayhun daryosining oxirida, daryoning ikkita tomonida joylashgan nohiyadir”, — deb ta’rif beradi.

Asosiy qism. VIII–X asrlarda feodal munosabatlarning rivojlanishi Xorazmda davlat boshqaruvi, fan va madaniyatning yuksalishiga zamin yaratdi. Antik davrda Kushonlar imperiyasi tarkibiga kirgan Xorazm ilk o‘rta asrlarda Kidariylar, Eftalitlar va Turk xoqonligiga faqat nomigagina bo‘ysunib, amalda esa mahalliy Afrig‘iylar sulolasi tomonidan boshqarilgan. Bu holat hududda kuchli mahalliy davlatchilik an‘analari mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. Arablarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi Xorazmda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni murakkablashtirdi. Keyingi davrlarda Xorazm To‘xiriylar, Safforiylar, Somoniylar, G‘aznaviylar, Qoraxoniylar va Saljuqiylar davlatlari tarkibiga kirgan bo‘lsa-da, geografik uzoqlik va iqtisodiy salohiyat tufayli nisbatan mustaqil siyosat yuritishga erishdi.

1017 yilda, shohning Xazoraspeda turgan qo‘shinida Ma‘munga qarshi fitna uyushtirilib, suiqasd qilinadi. Isyonchilardan o‘ch olish bahonasida Mahmud G‘aznaviy Xorazmga bostirib kirib, uni egallaydi. Xorazmda o‘z odami Oltuntoshni noib qilib qoldiradi. Oltuntoshning vorisi Xorun davrida Xorazm o‘zini G‘aznadan mustaqil deb e’lon qiladi. Lekin bu voqea ro‘y bergan 1034 yildayoq Xorazm ham, g‘aznaviylar davlatining o‘zi ham turk qabilalarining bosqinchilik yurishi bilan bog‘liq bo‘lgan juda zo‘r halokatni qurboni bo‘ladilar; bu qabilalarga o‘guz zodagonlaridan chiqqan nufuzli xonadonlardan biri - saljuqiylar boshchilik qiladi. Ushbu jarayonlar natijasida markazlashgan boshqaruv tizimi kuchaytirilib, viloyatlar sulton tomonidan tayinlangan voliylar orqali idora etish amaliyoti keng qo‘llanila boshlandi. Xorazm ham mazkur boshqaruv tizimi doirasida boshqarilib, viloyat hokimlari markaziy hokimiyatga bo‘ysundirilgan edi. 1043 yilda Xorazmni saljuqlar bosib oldi. Ana shu tarixiy sharoitda Anushteginiylar sulolasining siyosiy maydonga chiqishi yuz berdi. Anushteginning Xorazm voliysi etib tayinlanishi Saljuqiylar davlat boshqaruviga xos bo‘lgan ma‘muriy-harbiy tizimning amaliy ifodasi bo‘lib, u hukmdor hokimiyatining markazlashuvini ta‘minlashga qaratilgan edi. Ushbu tezisning maqsadi Anushtegin boshchilik Xorazmshohlar davrida markaziy va mahalliy boshqaruvning o‘rni va ro‘lini tizimli ko‘rib chiqish va amaldorlarni o‘zaro munosabatini tahlil qilishdir. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Anushteginiylar hokimiyatga kelgan davrdagi davlat boshqaruvining umumiy xususiyatlar aniqlash;

20-Yanvar, 2026-yil

2. Xorazmshohlar davlatchiligida mahalliy va ma'muriy amaldorlarning o'rni;
3. Davlat mansablari va mahkamalar tartibi va ularning boshqaruvdagi o'rnini ochib berish;
4. Xorazmshohlar davlatining harbiy tuzilmasi va uning boshqaruvdagi ro'lini ochib berish;

Ushbu tadqiqot Anushtegin Xorazmshohlarni xokimiyat tepasiga kelishi, yuksalishi va bu borada markaziy, mahalliy boshqaruvning o'rni va ro'li ahamiyatini ochib beradi shuningdek, Anushtegin Xorazmshohlarni boy madaniy merosini o'rganish va saqlash bo'yicha amaliy ishlar uchun ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

1. Xulosa. Anushteginiylar sulolasining hokimiyatga kelishi XI asr oxiri – XII asr boshlarida O'rta Osiyoda yuz bergan murakkab siyosiy jarayonlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu davr davlat boshqaruvi tizimida muhim institutsional va siyosiy o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Dastlab Saljuqiylar davlatiga bo'ysunuvchi voliylik sifatida shakllangan Xorazm Anushtegin va uning vorislari davrida nisbatan mustaqil siyosiy-ma'muriy birlikka aylana boshladi. Bu davr davlat boshqaruvining asosiy xususiyatlaridan biri markazlashuv jarayonining bosqichma-bosqich kuchayishidir. Xorazm voliylari Saljuqiy sulton nomidan hukmronlik qilgan bo'lsalar-da, amalda mahalliy harbiy-ma'muriy apparatni o'z qo'llarida jamlashga erishdilar. Ayniqsa, moliyaviy boshqaruv va yer-mulk munosabatlarida voliylarning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlari kengaydi. Mahalliy boshqaruv tizimining asosini voliylar (hokimlar) tashkil etib, ular Xorazmshoh nomidan hududlarni idora qilgan, soliq yig'imi, jamoat tartibi va harbiy safarbarlikni nazorat qilgan. Voliylar, odatda, hukmdorga shaxsiy sadoqati bilan ajralib turgan amaldorlar orasidan tayinlangan bo'lib, bu markaziy hokimiyat manfaatlarini joylarda ta'minlashga xizmat qilgan. Ma'muriy boshqaruvda devon tizimi muhim o'rin tutgan. Devon al-insho, devon al-xaroj va devon al-jund kabi idoralar orqali moliya, harbiy va hujjatchilik ishlari markazlashgan tarzda boshqarilgan. Mahalliy devon vakillari markaz bilan joylar o'rtasida vositachi bo'lib, davlat farmonlarining ijrosini ta'minlagan. Davlatlar shakllandi. Shuningdek, qozilar va diniy-ma'muriy elita mahalliy boshqaruvda alohida mavqega ega bo'lgan. Sud-huquq masalalarida shariat asosida qaror chiqaruvchi qozilar ijtimoiy barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynagan bo'lsa, ulamolar hokimiyatning legitimligini mustahkamlovchi omil sifatida faoliyat yuritgan. Mahalliy harbiy amaldorlar — sipohsolorlar, lashkarboshilar va qal'a noiblari esa hududiy xavfsizlikni ta'minlash bilan birga, markaziy hokimiyatning harbiy tayanchi bo'lib xizmat qilgan. Davlat boshqaruvida oliy hokimiyat Xorazmshoh qo'lida jamlangan bo'lib, u siyosiy, harbiy va ma'muriy qarorlarni qabul qilishda mutlaq vakolatlarga ega edi. Hukmdor huzurida faoliyat yuritgan oliy mansabdorlar davlat boshqaruvining asosiy ijrochi bo'g'inini tashkil etgan. Ular orasida vazir eng muhim lavozim hisoblanib, davlat siyosatini amalga oshirish, devonlar faoliyatini muvofiqlashtirish va moliyaviy hamda ma'muriy masalalarni nazorat qilish vazifasini bajargan. Ma'muriy boshqaruvda devon tizimi yetakchi o'rin tutgan. Devon al-xaroj davlat moliya va soliq tizimini boshqargan bo'lsa, devon al-insho rasmiy hujjatlar, farmonlar va diplomatik yozishmalarni yuritgan. Devon al-jund esa harbiy ishlar, qo'shin ta'minoti va harbiy

20-Yanvar, 2026-yil

ro'yxatga olish bilan shug'ullangan. Ushbu devonlar o'zaro muvofiqlashtirilgan holda ishlagan bo'lib, markaziy hokimiyatning joylardagi ta'sirini ta'minlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Q.Masharipov Jaloliddin Manguberdi - Buyuk Vatanparvar Sarkarda T:”Navro’z” nashriyoti 2019 - B.4
- 2.Sa’gdullaev.A O’zbekiston tarixi: Davlat va Jamiyat taraqqiyoti “Akademiya” nashriyoti 2000-B.5
- 3.Abdrimov.B Vasim.Sajjad Sulton Jaloliddin Xorazmshoh Pokistonda “O’zbekiston”NIMU 2021-B.8
- 4.Masharipov.O Xorazmnoma II Kitob. Yuksalish va inqroz “Xorazm” nashriyoti - 2007- B.81
5. Talstov.S.P. “Xorazm sivilizasiyasini izlab” Tarjimon A.Muhammadqulov Toshkent: Yangi asr avlodi 2014-B.316

Global
Science
Publication